



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**EKOTURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA
ULARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI**

**ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА И
ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО РЕАЛИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**FOREIGN EXPERIENCE OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF ECOTOURISM AND
POSSIBILITIES OF IMPLEMENTING THEM IN UZBEKISTAN**

Karimova Fotima Abdurasulovna

Stajyor-tadqiqotchi (PhD), Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro, O‘zbekiston

ORCID: 0009-0000-1987-3176

Annotatsiya

Maqolada ekoturizmni barqaror rivojlantirish bo‘yicha jahonda e’tirof etilgan olti davlat — Kosta-Rika, Butan, Nepal, Keniya, Sloveniya va Yangi Zelandiya tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijasida barqaror ekoturizmning beshta institutsional mexanizmi — ekotizim xizmatlari uchun to‘lovlar, turistik oqimni ekologik sig‘im doirasida boshqarish, daromadlarni mahalliy hamjamiyatga qaytarish, yashil sertifikatlash hamda konsessiyaviy ruxsat tizimi ajratib ko‘rsatilgan. O‘zbekistonning amaldagi huquqiy bazasi (PQ-21-son qaror, PF-87-son Farmon, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi) ushbu mexanizmlar nuqtai nazaridan baholanib, mavjud institutsional bo‘shliqlar aniqlangan va xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekoturizm, barqaror rivojlanish, ekotizim xizmatlari, rekreatsion sig‘im, yashil sertifikatlash, tabiiy hududlar.

В статье представлен сравнительный анализ опыта шести международно признанных стран в области устойчивого развития экотуризма – Коста-Рики, Бутана, Непала, Кении, Словении и Новой Зеландии. В результате анализа выделены пять институциональных механизмов устойчивого экотуризма: платежи за экосистемные услуги, управление туристическими потоками в пределах экологической емкости, возврат дохода местным сообществам, зеленая сертификация и система концессионных разрешений. С точки зрения этих механизмов оценивается действующая правовая база Узбекистана (Постановление № ПК-21, Указ № ПФ-87, Стратегия «Узбекистан – 2030»), выявлены существующие институциональные пробелы и разработаны практические предложения по внедрению зарубежного опыта, адаптированного к национальным условиям.

Ключевые слова: экотуризм, устойчивое развитие, экосистемные услуги, рекреационная емкость, зеленая сертификация, природные территории.

The article provides a comparative analysis of the experience of six internationally recognized countries in the sustainable development of ecotourism — Costa Rica, Bhutan, Nepal, Kenya, Slovenia and New Zealand. As a result of the analysis, five institutional mechanisms of sustainable ecotourism are identified — payments for ecosystem services, management of tourist flows within the ecological capacity, return of income to local communities, green certification and concession permit system. The current legal framework of Uzbekistan (Resolution No. PQ-21, Decree No. PF-87, Strategy "Uzbekistan — 2030") is assessed from the perspective of these mechanisms, existing institutional gaps are identified and practical proposals are developed for the introduction of foreign experience adapted to national conditions.

Keywords: ecotourism, sustainable development, ecosystem services, recreational capacity, green certification, natural areas.

Ekoturizm jahon turizm industriyasining eng jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo‘lib, tabiatga mas’uliyatli sayohat orqali atrof-muhitni asrash va mahalliy aholi farovonligini oshirishni ko‘zda tutadi [7]. Ilmiy adabiyotda ekoturizm uchta mezon bilan ta’riflanadi: sayohat obyekting tabiiy muhit ekanligi, faoliyatning ta’lim-tarbiyaviy mazmuni hamda ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik [7; 9]. D.Fennell ta’kidlaganidek, aynan barqarorlik majburiyatlari ekoturizmni oddiy tabiat turizmidan ajratib turadi [7]. Shu bois davlatlarning ekoturizm siyosati samaradorligi ushbu majburiyatlarni amalda ta’minlovchi institutsional mexanizmlarga bog‘liq bo‘lib, ularning eng sinalgan namunalari xorijiy tajribada to‘plangan.

O‘zbekiston uchun mavzu alohida dolzarbdir. Mamlakat tog‘, cho‘l, daryo va ko‘l ekotizimlari, Ugam-Chotqol va Zomin milliy tabiat bog‘lari, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati kabi noyob tabiiy hududlarga ega [13]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida o‘rmon xo‘jaliklari, tog‘li va cho‘l hududlarida ekoturizmni joriy qilish, Orolbo‘yida yashil maydonlarni 2,6 million gektarga yetkazish vazifalari belgilangan [1]. Prezidentning 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son qarori bilan ekohududlardagi yer uchastkalarini “E-auksion” orqali 10 yilga ijaraga berish, ekoturizm klasterlarini tashkil etish va soliq imtiyozlari mexanizmlari yaratildi [2]. 2025-yilda mamlakatga 11,7 million xorijiy turist tashrif buyurgani [6] tabiat asosidagi turizm mahsulotlariga talab o‘rishini ko‘rsatmoqda. Biroq turistik bosimning ortishi nozik ekotizimlar uchun xavf tug‘dirishi mumkin, shu sababli o‘rishni barqarorlik mexanizmlari bilan muvozanatlash zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqotning nazariy asosini ekoturizm va barqaror turizm bo‘yicha fundamental ishlar (D.Fennell, M.Honey, D.Weaver), Barqaror turizm bo‘yicha global kengash (GSTC) mezonlari hamda ekotizim xizmatlari uchun to‘lovlar konsepsiyasi (S.Pagiola) tashkil etdi [7–12].

Asosiy tadqiqot usuli — qiyosiy-mamlakatshunoslik tahlili bo‘lib, tanlanma olti davlatni qamrab oldi: Kosta-Rika, Butan, Nepal, Keniya, Sloveniya va Yangi Zelandiya. Tanlov mezonlari sifatida mamlakatning ekoturizm sohasidagi xalqaro e’tirofi, qo‘llanilayotgan mexanizmning o‘ziga xosligi hamda tabiiy-geografik sharoitlarning xilma-xilligi (tog‘, tropik o‘rmon, savanna, cho‘lga yondosh hududlar) olindi — bu O‘zbekistonning turli ekohududlari uchun mos saboqlar olish imkonini beradi. Qo‘shimcha usullar sifatida tizimli tahlil (mexanizmlarni tasniflashda), institutsional tahlil (O‘zbekiston me’yoriy-huquqiy hujjatlari — PF-158, PQ-21, PF-87 mazmunini o‘rganishda) hamda ilmiy abstraksiya va umumlashtirish (takliflarni shakllantirishda) qo‘llanildi. Empirik ma’lumotlar sifatida BMT Turizm tashkiloti, O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi va Turizm qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari hamda retsenziyalanadigan ilmiy nashrlardagi tasdiqlangan natijalardan foydalanildi [4–6; 11; 12]; taxminiy yoki tasdiqlanmagan raqamlar qo‘llanilmadi.

Olti davlat tajribasining qiyosiy tahlili barqaror ekoturizmning bir-birini to‘ldiruvchi institutsional mexanizmlari tizimini aniqlash imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval

Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy mexanizmlari qiyosiy tavsifi

Mamlakat	Asosiy mexanizm	Mexanizm mazmuni	O‘zbekiston uchun saboq
Kosta-Rika	Ekotizim xizmatlari uchun to‘lovlar (PES); CST sertifikati	Yer egalari o‘rmonni saqlash uchun davlat to‘lovlari; korxonalarini barqarorlik bo‘yicha sertifikatlash	Tabiatni asrashni iqtisodiy rag‘batlantirish; yashil jamg‘armalardan kompensatsion to‘lovlar
Butan	“Yuqori qiymat — past hajm” siyosati	Sayyohdan bir kecha uchun 100 AQSH dollari miqdorida barqaror rivojlanish yig‘imi; oqimni	Nozik ekotizimlarda rekreatsion sig‘im me’yorlari va tashrifni cheklash tizimi

		ekologik sig‘im doirasida cheklash	
Nepal	Daromadlarni hamjamiyatga qaytarish (ACAP)	Kirish yig‘imlari mahalliy infratuzilma, ta’lim va muhofazaga sarflanadi; boshqaruvda mahalliy qo‘mitalar ishtiroki	Kirish yig‘imlarining maqsadli ulushini hudud va aholiga yo‘naltirish
Keniya	Jamoaviy konservatsiya hududlari	Mahalliy jamoalar yerlarini safari-turizmga ajratib, daromad taqsimoti shartnomalarini tuzadi	Mahalla instituti asosida jamoaviy ekoturizm shartnomalari
Sloveniya	“Slovenia Green” milliy sxemasi	GSTC mezonlari asosida destinatsiya va korxonalarni yagona tizimda sertifikatlash va brendlar	GSTC asosidagi milliy “Yashil turizm” sertifikati
Yangi Zelandiya	Konsessiya tizimi; “Tiaki Promise”	Muhofaza hududlarida tijorat faoliyati ekologik shartli ruxsatnoma asosida; sayyohlarni tarbiyalash dasturi	Ekohududlarda faoliyatga shartli ruxsat va ekologik targ‘ibot

Manba: [7–12] manbalari tahlili asosida muallif tomonidan tuzildi.

Keltirilgan natijalar ekoturizmni barqaror rivojlantirish muvaffaqiyatining zahirida yagona universal retsept emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi institutsional mexanizmlar tizimi yotishini yaqqol ko‘rsatadi. Olti davlat tajribasining har biri muammoning alohida bo‘g‘iniga yechim taklif etadi. Kosta-Rika misoli eng muhim saboqni beradi: tabiatni asrash axloqiy chaqiriq darajasida qolmasdan, yer egasi uchun real daromad manbaiga aylantirilgandagina ommaviy xulq-atvor o‘zgaradi. O‘rmon qoplamining mamlakat hududining yarmidan ortig‘iga qadar tiklanishi aynan shu iqtisodiy rag‘batning kuchini isbotlaydi. Butan tajribasi esa teskari tomondan yondashadi — u daromadni emas, oqimni boshqaradi va shu orqali "ko‘p turist — ko‘p foyda" degan keng tarqalgan, ammo xato qarashni rad etadi: har bir sayyohdan olinadigan qiymatni oshirish ekologik jihatdan xavfsizroq va iqtisodiy jihatdan samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Nepal va Keniya modellari ijtimoiy ustunni ochib beradi. ACAP tajribasida kirish yig‘imlarining mahalliy qishloqlarga qaytishi aholini tabiatning "qo‘riqchisi"ga aylantirgan bo‘lsa, Keniya konservatsiyalari yer huquqlari aniqligi va daromad taqsimoti shaffofligi jamoaviy ishtirokning zaruriy sharti ekanini ko‘rsatadi. Bu ikki misol umumiy qonuniyatni tasdiqlaydi: mahalliy hamjamiyat ekoturizmdan manfaat ko‘rmasa, u muhofaza rejimining ittifoqchisi emas, raqibiga aylanadi. Sloveniya va Yangi Zelandiya tajribalari esa boshqaruv vositalarini — xalqaro mezonlarga tayangan sertifikatlash orqali bozor ishonchini qozonish hamda konsessiya orqali biznes faoliyatini ekologik shartlar bilan bog‘lashni namoyish etadi.

Olingan natijalar barqaror turizm nazariyasining markaziy qoidasini tasdiqlaydi: ekoturizmning muvaffaqiyati alohida loyihalar emas, balki rag‘bat, cheklov va ishtirok mexanizmlarining yaxlit tizimi mahsulidir [9]. M.Honey ta’kidlaganidek, sertifikatlash va moliyaviy vositalarsiz “ekoturizm” yorlig‘i ko‘pincha marketing niqobiga (greenwashing) aylanadi [8] — bu O‘zbekiston uchun ham ogohlantirish bo‘lib, ekohududlarga kirayotgan biznesning ekologik majburiyatlari aniq o‘lchanadigan va nazorat qilinadigan bo‘lishi lozimligini anglatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekoturizmni barqaror rivojlantirishning jahon tajribasi beshta institutsional ustun — moliyaviy rag‘batlantirish, oqimni boshqarish, daromadlarni hamjamiyatga qaytarish, yashil sertifikatlash va konsessiya tizimining uyg‘unligiga asoslanadi. O‘zbekistonda PQ-21-son qaror, PF-87-son Farmon va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan yaratilgan huquqiy asos ushbu ustunlarning bir qismini qamrab olgan bo‘lib, qolgan mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish uchun qulay shart-sharoit mavjud. Olib borilgan tahlil asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga kirish yig‘imlari va konsessiya to‘lovlaridan tushadigan mablag‘larning kamida 50 foizini ayni shu hudud muhofazasi va atrofidagi mahalliy hamjamiyatlar infratuzilmasiga maqsadli yo‘naltirish tartibini huquqiy mustahkamlash (Nepal — ACAP modeli);

2. Har bir ekohudud uchun ilmiy asoslangan rekreatsion sig‘im me‘yorlarini ishlab chiqish va eng jozibador obyektlarda tashriflarni onlayn-bron orqali boshqarish tizimini Milliy turizm yagona platformasiga integratsiya qilgan holda joriy etish (Butan tajribasi);

3. Mahalla instituti asosida jamoaviy ekoturizm shartnomalari amaliyotini sinovdan o‘tkazish — dastlab Zomin, Ugam-Chotqol va Nurota atrofi hududlarida daromad taqsimotiga asoslangan pilot loyihalarni amalga oshirish (Keniya modeli);

4. Ekoturizm bo‘yicha alohida statistik kuzatuvni (tashriflar, daromadlar, mahalliy bandlik, ekotizim holati indikatorlari) yo‘lga qo‘yish hamda oliy ta‘lim muassasalarida ekogid va tabiat talqinchisi yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlashni kengaytirish.

Ushbu takliflarning tizimli amalga oshirilishi O‘zbekistonda ekoturizmni tabiatni asrash, hududlarni ijtimoiy rivojlantirish va eksport daromadlarini diversifikatsiya qilishning barqaror vositasiga aylantirish hamda mamlakatning jahon ekoturizm bozoridagi raqobat mavqeyini mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-21-sonli Qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz/docs/-6759745>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz/docs/-7531559>
4. UN Tourism. World Tourism Barometer. Volume 23. – Madrid: UN World Tourism Organization, 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. 2025-yil yanvar–noyabr oylarida turizm sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlar to‘g‘risida ma‘lumot. – Toshkent, 2025. // <https://uzbektourism.uz>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo‘mitasi. 2025-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar to‘g‘risida ma‘lumot. – Toshkent, 2026. // <https://stat.uz>
7. Fennell D.A. Ecotourism. 5th ed. – London: Routledge, 2020. – 364 p.